

## VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 539- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risidagi mazkur ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida, 2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.

### Korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1-aprel holatiga ko‘ra,birlikda)  
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)




#### ■ Ro‘yxatdan o‘tgan ■ Faoliyat ko‘rsatayotgan ■ Yangi tashkil etilgan

#### Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## Ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, (2023- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish surati, savdo (121,9 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (120,9 %), axborot va aloqa (117,9 %), tashish va saqlash (117,6 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (116,4 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (115,3 %), qurilish (111,9 %), sanoat (115,0 %) va boshqa turdagи xizmatlar (108,3 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.



### Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko‘ra, ming birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)




ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra 42 309 tani tashkil etib, 2022-yilning shu davriga solishtirilganda 5 106 (47 415) taga yoki 89,2 % ga

kamaygan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 33,3 % savdo, 19,8 % sanoat, 6,9 % qurilish, 5,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,4 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 3,7 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 2,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 21,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### **2023- yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o'sish surati, %**

*(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)*



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- aprel holatiga 36 368 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxona – 8 668 ta, oilaviy korxona - 5 255 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 21 892 ta, aksiyadorlik jamiyat - 51 ta va boshqa turdag'i korxonalar - 502 tani tashkil etadi.


### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 30,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 mingtaga yoki 123,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 24,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 mingtaga yoki 92,9%ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 608 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 313 taga yoki 124,2%ga ko'payganni ko'rish mumkin.



## Yangi tashkil yetilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (yanvar-mart oylarida)




2023- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar 2 230 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (17,0%), Qo'qon shahar (8,7%), Quva tumani (7,3%), Quvasoy shahar (6,6%), Marg'ilon shahar (5,5%), Oltiariq tumani (5,2%), Toshloq tumani (5,2%), Bag'dod tumani (4,9%), Dang'ara tumani (4,7%), O'zbekiston tumani (4,5%), Buvayda tumani (4,4%), Beshariq tumani (4,1%), Uchko'prik tumani (4,0%), Farg'ona tumani (3,9%), Rishton tumani (3,2%), Yozyovon tumani (3,0%), So'x tumani (2,8 %), Qo'shtepa tumani (2,8%), Furqat tumani (2,2%) hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni


*(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)*



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, birlikda)




Hududlar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, birlikda)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2023- yil 1- aprel holatiga ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 630 tani tashkil etdi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 96 taga yoki 118,0 %ga o‘sgan.


■ Ro‘yxatdan o‘tgan ■ Faoliyat ko‘rsatayotgan ■ Yangi tashkil etilgan



## Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi (2023- yil  
1- aprel holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**  
(1- aprel holatiga ko‘ra, yillar kesimida, birlikda)

	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>	<b>317</b>	<b>429</b>	<b>465</b>	<b>547</b>	<b>456</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	18	29	24	31	24
<b>Sanoat</b>	197	246	260	286	223
<b>Qurilish</b>	8	11	20	27	30
<b>Savdo</b>	46	74	88	117	97
<b>Tashish va saqlash</b>	9	12	13	16	17
<b>Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar</b>	13	15	14	14	14
<b>Axborot va aloqa</b>	4	4	4	3	3
<b>Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish</b>	7	10	9	10	8
<b>Boshqa turlar</b>	15	28	33	43	40

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimida soni

*(2023- yil 1- aprel holatiga, birlikda)*


	Ro‘yxatga olinganlar	2023- yil yanvar-mart		
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan	
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>630</b>	<b>20</b>	<b>2</b>	
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	199	9	1	
Qo‘qon	78	1		
Quvasoy	38	1	-	
Marg‘ilon	36			
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29	-	-	
Qo‘shtepa	12	-	-	
Bag‘dod	17	2	-	
Buvayda	13		-	
Beshariq	14	1	-	
Quva	25	2	1	
Uchko‘prik	26	1	-	
Rishton	13	-	-	
So‘x	9	-	-	
Toshloq	18	-	-	
O‘zbekiston	32	2	-	
Farg‘ona	28	-	-	
Dang‘ara	21	-	-	
Furqat	14	1	-	
Yozyovon	8	-	-	

## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1-aprel holatiga 7 373 tani tashkil etib, ulardan 5 255 tasi yoki 71,3 % faoliyat yuritmoqda.


## **Oilaviy korxonalarining yillar kesimidagi soni**

(birlikda)



## **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,**

(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

*(birlikda)*

	<i>Ro‘yxatga olinganlar</i>	2023- yil yanvar-mart	
		<i>yangi tashkil etilgan</i>	<i>tugatilgan</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>7 373</b>	<b>289</b>	<b>53</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	739	18	4
Qo‘qon	555	18	11
Quvasoy	363	44	2
Marg‘ilon	473	6	3
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	594	19	3
Qo‘shtepa	189	6	1
Bag‘dod	389	7	2
Buvayda	338	5	
Beshariq	320	12	2
Quva	279	23	1
Uchko‘prik	358	11	2
Rishton	720	20	7
So‘x	135	14	
Toshloq	267	7	2
O‘zbekiston	484	18	6
Farg‘ona	273	9	1
Dang‘ara	491	33	4
Furqat	320	13	2
Yozyovon	86	6	-